

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLANDI”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Xodjayeva
29-avgust 2025 yil

SOZANDALAR ANSAMBLI
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi: 210 000 - San’at
Ta’lim yo‘nalishi 60211700 – Xalq ijodiyoti : ashula va raqs

Qo‘qon – 2025

Φan /modul kodi SOZA 200136	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 1,2,3,4,5,6,7	YeKTS-Kreditlar 36	
Fan /modul turi majburiy	Ta’lim tili o‘zbek		Xaftadagi dars soatlari 4,4,6,6,6,4,6	
1 .	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Sozandalar ansambli	540	540	1080

2	I.Fanning mazmuni. Ushbu o‘quv dasturida xar bir talaba o‘zbek xalq cholg‘ularida milliy musiqalarimizni ijro qilishni egallashi , unda xalq cholg‘ularidan nay, chang, qonun, tunbur, qashqar rubobi, afg‘on rubobi, an‘anaviy dutor, soz, ud, doira, g‘ijjak cholg‘ularida ijrochidik makalarini egallaydi va ansambl bo‘lib ijro qilish, o‘zbek xalq kuylarida uchraydigan nolish, qochirim, nola qilishni, ijro shtrixlari, dinamika, ritm, o‘lchov, musiqiy asarda temp, ovozlar nyuansi, asarlarning mazmunini talqin etishning dastlabka va muxim qoidalari xaqida o‘z tasavvuflariga ega bo‘lishni nazarda tutadi. “Sozandalar ansambli” fani Xalq ijodiyoti : ashula va raqs ta’lim yo‘nalishida mutaxxassis tayorlashda maxsus fanlar turkimiga kiradi. Ushbu fan orqali talabalar 1,2,3,4,5,6,7 – semestrlarida amaliy bilimlarni egallaydilar. Bunda : o‘zbek xalq cholg‘ularida (talaba) xalq sozandachilik merosini chuqur o‘rganib, uning ustazoda ijro uslublari, mumtoz kuylar, o‘zbek bastakorlari asarlar, o‘zbek xalq kuylarining shaklan tuzilishi, usul sanoqlari, kuy o‘lchovi, asar shakli va tuzilishi xaqida chuqur bilim berish nazarda tutilgan. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Orkestr sinfi fani dasturi Royal College of Music (RCM) universitetining “Conducting” fakulteti “Orkestr repertuarini o‘rganish” (Orchestral Repertoire) moduli bo‘yicha shakllantirilgan zamonaviy o‘quv dasturlari asosida takomillashtirilgan. Royal College of Music —Buyuk Britaniyadagi eng yaxshi universitetlardan biridir. U QS WUR reytingida 2025-yilda mavzu bo‘yicha 1-o‘rinni egalladi. Royal College of Music (RCM) dunyodagi eng buyuk konservatoriyalardan biri bo'lib, butun dunyodan iqtidorli musiqachilarni ijrochi, dirijyor va bastakorlarni tayyorlaydi. Asosiy yo‘nalishlari: 1. Brass 2. Composition
----------	--

3. Conducting
4. Historical Performance
5. Keyboard
6. Percussion
7. Strings
8. Woodwind
9. Vocal & Opera

II. Asosiy qism

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

1 – mavzu. Cholgʻularni sozlash.

Ansamblda mavjud cholgʻular fortepiano, chang cholgʻusi yoki kamerton yordamida sozlanadi.

2-mavzu: Asarni tanlash

Badiiy rahbar repertuarni tanlaydi. Tanlovda ansamblning ijro darajasi, repertuar xilma-xilligi, anʼanaviylik va zamonaviylik oʻrtasidagi balans hisobga olinadi. Asarlarning uslubi, shakli (syuita, konsert, kuy, rapsodiya), murakkabligi tahlil qilinadi.

3-mavzu: Cholgʻu guruhlarini boʻyicha mashgʻulot

Ansambl ichida damli, urma torli, chertma torli, zarbli, yoki kamonli cholgʻular alohida guruhlarda mashq qiladi. Bu bosqichda tovush balansi, ifodaviylik, jipslikka eʼtibor qaratiladi.

4– mavzu. Umumiy ijroda uygʻonishga erishish

Umumiy ijroda uygʻonishga erishish borasidagi maʼlumotlar ogʻzaki tarzda yetkazilish bilan bir qatorida amaliy ijro davrida ham sinab koʻriladi.

3 - mavzu. Tovushqatorlar asar ustida ishlashda nota yozuvi va eshitish ularidan foydalanish.

Ansambl ijrochilariga musiqiy asarni mahorat bilan ijro etishda eng muhim vazifalardan biridir.

4 – mavzu. Musiqiy tovush soʻzi va sofligi

Musiqiy tovush soʻzi va sofligi erishish uchun birinchi navbatda ansambl cholgʻulari sozlanadi ansamblning umumiy soʻzi tekshirib koʻriladi.

5 – mavzu. Jamoa ijrochiligida hosil qilish intonatsiya va shtrix

Ansambl sinfi oʻqituvchisi talab qilgan tovush kuchida umumiy ritmni saqlagan holda oʻz ijrosi bilan boshqalar ijrosini moslagan holda ijroga erishish uchun ansambilda asosiy asar ustida ish boshlashidan avval gammalar va mashqlar ijro etiladi.

6 – mavzu, Ijro maxoratini oshirish usullari.

Ijro maxoratini o‘stiruvchi mashqlarni tavsiya qilish, asarlarda uchraydigan texnik jixatdan murakkab joylarni o‘zlashtirishni soddalashtirish, shuningdek tinimsiz ijro texnikasini o‘stirish maqsadida etyud va gammalarni avval vazmin keyin tezroq tempda chalish orqali ijro maxorati o‘stiriladi.

7 – mavzu. Musiqiy jumla, tovushqator va dinamik belgilar.

Ansamblida ijro etilayotgan asarlarni qisimlarga va qismlarni jumla va frazalarga bo‘lish orqali musiqaning shakli aniqlanadi va xar frazani aloxida , keyin frazalarni qo‘shishi orqali musiqiy jumla xosil qilinadi.

8 – mavzu. Ansambl cholg‘ulari tarkibi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari rang-barangligi bois undan turli takibdagi ansambllar tuzish imkoni mavjud.

9 – mavzu. Musiqiy asar ustida ishlash bosqichlari.

Tanlangan asar ustida ishlar bosqichma-bosqich olib boriladi. Yangi tarqatilgan asar muallifi va asarning o‘ziga xos tomonlari xaqida ansambl sinfi o‘qituvchisi og‘zaki ma’lumotlar berib, ansambl ijrosida asarni boshidan oxirigacha bir marta chalib chiqiladi.

10 – mavzu. Ijodiy xisobotlarga tayyorgarlik.

Ansambl ijrosilari tepertuar tanlab asar ustida ishlashni boshlashidanoq o‘z oldiga maqsad qo‘yishi lozim.

11 – mavzu. Konsert chiqishlarga tayyorlash va o‘tkazish.

Repertoire programming & concert preparation (Repertuar dasturi va kontsertga tayyorgarlik dasturlarni tuzish, repertuar tanlash, sahnalashtirish, auditoriya bilan ishlash.

12 – mavzu. Saxna madaniyati va repertuar tanlash.

Ansambl jamoasi bilan kontsert, talabalar tomonidan boshqaruv, sahna tajribalari. Ijodiy va xisobot konsertlari, shuningdek boshqa tadbirlarda ansamblning chiqishida saxna madaniyatiga rioya qilish masalalariga aloxida e’tibor qaratish zarur.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

Izox : Amaliy mashg‘ulotlarning tarkibiy qismiga kiritilgan mavzular aloxida xolda bitta mashg‘ulot ko‘rinishida o‘tkazilmaydi. Aksincha, xar bitta semestrda ijro etilishi rejalashtirilgan asarni o‘zlashtirish davrida kompleks tarzda qo‘llaniladi va ijro etilayotgan asarning xar tomonlama mukammal o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi. Sozandalar ansambl bo‘yicha xar semestrda kamida to‘rtta musiqiy asar o‘zlashtiriladi. Musiqiy asarlar tarkibida qayta ishlangan o‘zbek xalq kuylari,

	O‘zbekiston bastakorlarining o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambliga moslashtirilgan asarlari, O‘zbekiston kompozitorlarining o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli uchun yozilgan maxsus asarlari, “Shashmaqom”ning mushkilot bo‘limidan asarlar bo‘ladi. Ansambl repertuaridagi asarlar – o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli ijrosi uchun, yakkaxon xonanda va ansambl uchun, yakkanavoz sozanda va ansambl uchun bo‘lishi mumkin. IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar. Mustaqil ishning asosiy maqsadi – bakalavrlardan muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish xamda rivojlantirishdan iborat. Mustaqil ishning tashkiliy shakllari quyidagilardan iborat : - Cholg‘uning tiniq va sof sozlanishi va sadolanishga erishish. - Turli shakl va ritmdagi major – minor gammalar, ularning turlari, uchtovushlar. - Asarlardagi ijro bezaklari, nota o‘qish ko‘nikmasi, uslubiy adabiyotlar. - Audio, video yozuvlari to‘plash va foydalanish. - Mashxur sozandalar ijrosini kuzatib borish, taxlil etish. - Yangi asarlar bilan tanishib borish, imkon darajasida mustaqil o‘zlashtirish ko‘rinmasini xosil qilish. Talabaga mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi.
3.	V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak : - Ustoz sozanda ijrochilarining ijro uslublarini chuqur o‘rganib xalq kuylarini o‘zlashtirish tasavvurga ega bo‘lishi. - Mumtoz kuylar, o‘zbek bastakorlari asarlari, o‘zbek xalq kuylari ularning shaklan tuzilishi, usul sanoqlari, kuy o‘lchovi, asar shakli va tuzilishi, asarlarning cholg‘u yo‘li va aytim yo‘llarini ijro qilish orqali unda barcha nolalarni xis qilib cholg‘u ijrochiligi fanidan bilimlarga ega bo‘lish.
4.	VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari : - Og‘zaki tushuntirish, savol-javob, musiqiy taxlil, amaliy ijro.

	- Yakka tartibda ishlash. - Talabaning milliy cholgʻusida ijro, cholgʻuda (pastanovka) amaliy ijro etish. - Asarning nota matni. - Ijro xolatini kuzatish, kamchiliklarini aytib, shaxsiy naʼmuna orqali toʻgʻrilab borish, berilgan ogʻzaki maʼlumotlarning qay darajada oʻzlashtirilganligini savol-javob orqali nazorat qilish. Talaba tomonidan oʻzlashtirilgan amaliy bilimlarning darajasini aniqlash va talabaga yetkazish.
5.	IIV. Kreditlarni olish uchun talablar : Joriy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat boʻyicha oʻqituvchi tomonidan berilgan asarni yakka ijro qilib muvoffaqiyatli topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Nurmatov X. Qashqar rubobi. Toshkent; Oʻquv qoʻllanma, 2003 y. 2. T.Yoʻldoshev Ud darsligi T. 2008 y. 3. K.Mirzaev “ Sozandalar ansambli” “FAN ZIYoSI” nashryoti, matbaa birlashmasi T. 2020 y. 4. Sh.Alimatov “Sozandalar ansambli” “FAN ZIYoSI” nashryoti, matbaa birlashmasi T. 2021 y. 5. B.Toʻraboieva “Cholgʻu ijrochiligi” “FAN ZIYoSI” nashryoti, matbaa birlashmasi T. 2023 y

	Qoʻshimcha adabiyotlar 1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir raxbar faoliyatining kundaoik qoidasi boʻlishi kerak. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bagʻishlangan majlisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq soʻzi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11 2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil. 3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017 yil. 4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda quramiz. 2017 yil. 5. 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yoʻnalishi boʻyicha XARAKATLAR STRATEGIYaSI.
--	--

	6. I.Akbarov “Musiqalari” T. 1998 yil. 7. Rajabiy Yu. “O‘zbek xalq muzikasi” I jild. T.; 1955 yil 8. Rajabiy Yu. “O‘zbek xalq muzikasi” II jild. T.; 1957 yil 9. Rajabiy Yu. “Maqomlar masalasiga doir” T.; O‘zadabiy nashr-1963 yil 10.Rajabiy Yu. “Shashmaqom” I jild. T.; 1966 yil 11.Rajabiy Yu. “Shashmaqom” II jild. T.; 1967 yil 12.Rajabiy Yu. “Shashmaqom” III jild. T.; 1970 yil 13.Umarov A. “Tanbur navolari” T.; O‘quv qo‘llanma, 1995 yil 14.Qosimov R. “An‘anaviy tanbur ijrochiligi” T.; O‘quv qo‘llanma , 2002 yil 15.N.Sobirov. “Cholg‘u ijrochiligi” “FAN ZIYoSI” nashryoti, matbaa birlashmasi T. 2022 Axborot manbalari 1.www.ziyonet.uz 2.www.nevomuzik.net 3.www.rizanova.uz 4.https://www.rcm.ac.uk/Conducting 5.https://www.rcm.ac.uk/
--	--

7	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8	Fan/modul uchun mas’ullar V.Boboyev - Qo‘qon davlat universiteti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasida dotsent v.b M.Qurbonova - Qo‘qon davlat universiteti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasida dotsent v.b
9	Taqrizchilar S.Azizov - Qo‘qon davlat universiteti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasida dotsenti. K.E.Shermatov - O‘z DSMI, “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasida dotsenti.